



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA IMLO QOIDALARI

Isakov Abdulkuddus Abdulmadjidovich

“Yangi asr” universiteti, magistrant

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan arab tiliga oid fikrlar misollar asosida tahlil qilinadi. Unda shoirning tilshunoslik, notiqlik odobi hamda o‘z davrida kasb darajasiga ko‘tarilgan kotiblik madaniyatiga bo‘lgan e‘tibori yoritiladi. Shuningdek, muallifning arab tiliga bo‘lgan munosabati va bu boradagi ayrim mulohazalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: “Xamsa”, asar, shoir, bayt, majlis, arabcha, forscha, turkiycha so‘zlar.

ОРФОГРАФИЧЕСКИЕ НОРМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Исаков Абдулқуддус Абдулмаджидович

Университет «Янги аср», магистрант

Аннотация

В статье на основе примеров анализируются высказывания на арабском языке в произведениях Алишера Навои. Освещается внимание поэта к вопросам языкознания, культуре ораторского искусства, а также к традициям писцовского мастерства, достигшего в его эпоху уровня профессиональной деятельности. Рассматриваются также взгляды автора на арабский язык и его роль в литературном процессе.

Ключевые слова: «Хамса», произведение, поэт, бейт, маджлис, арабский язык, персидский язык, тюркские слова.

ORTHOGRAPHIC RULES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Isakov Abdulkuddus Abdulmadjidovich

Yangi Asr University, Master’s Student

Abstract

The article analyzes statements in Arabic found in the works of Alisher Navoi based on specific examples. It highlights the poet’s attention to linguistics, the ethics of rhetoric, and the culture of scribal practice, which had reached a professional level in his time. The study also examines the author’s views on the Arabic language and its role in literary expression.

Keywords: “Khamsa,” work, poet, bayt, majlis, Arabic, Persian, Turkic words.

Hazrat Mir Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” (“Hayratlanganlar beshtaligi”) asarini ustoz Abdurahmon Jomiyning yorqin xotirasiga bag‘ishlab yozgan. Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini 1494-yilda yozgan.

Asar tilini o‘rganishdan oldin ushbu asarning mazmuni bilan tanishib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Biror-bir shaxs tarjimai holini o‘rganishda, u haqida yozishda, o‘sha siymo hayotining turli jihatlari va qirralarini tanib olishda u bilan bir zamonda yashagan, zamondosh bo‘lgan, ayniqsa, yaqin muloqotda bo‘lgan shaxslar tomonidan qoldirilgan ma’lumotlarning ahamiyati katta. Ana shunday zamondoshlarning manoqiblarida asar bag‘ishlangan shaxsning shaxsiyati, ruhiyati va boshqa shaxsiy xususiyatlarining turli o‘lchovlari, dunyoqarashini aks ettirishga harakat qilinadi. Navoiyshunos olim Yo. Is‘hoqov ushbu janrdagi asarlar tasvir obyekti bo‘lgan zotning eng yaqin muridi va shogirdi tomonidan yozilganini ta’kidlaydi.

Ba'zi tadqiqotlarda asar nomi haqida turli qarashlar mavjud. Ularda asarga nom berish "Xamsayi mutahayyira" voqeasi bilan bog'liqligi aytiladi. Mazkur voqea Zaynuddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" asarida keltirilgan. Unda aytilishicha, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Shayx Husayn, Mavlono Dovud, Mavlono Shamsuddin, Mu'in Tuniy ismli tolibi ilmlar ustozlaridan ham o'tib, ilm-ma'rifatning yuksak cho'qqisiga chiqadilarki, bu besh talaba xalq orasida "Xamsayi mutahayyira" nomi bilan mashhur bo'lgani va ularga hech kim oltinchi bo'lib qo'shila olmagan haqida so'z boradi.

Alisher Navoiy aytadiki, ustoz Jomiyning motamida o'tirganlarida: "Chun bu motamda majruh ko'ngul ozori va mahzun xotir iztirobu iztirori haddin oshti. Bu ranj taskini va bu oshub itmiynoni uchun xayolga andoq keldikim, ul sipehri izzu iqbol bila bu xokiyvasi furumoya va ul mehri avji kamol bila bu zarrai kamsarmoya orasida o'tgan holotdin bir necha varaq nigorish qilg'aymen va maqolotdin bir necha muqaddima guzorish berg'aymenki, ul umur zohiru botinimg'a mujibi mubohot va quvonmoq va dunyoyu oxirating'a boisi iftixor va o'kunmoqdur", ya'ni ko'nglida uning xotirasiga bag'ishlab bir asar yozmoqlik borligini aytadi, asarning nomini "Xamsat ul-mutahayyirin" deb nomlaganligini va asar tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Ular quyidagilar: "Bu risola xayolga keldi, binosin bir muqaddima va uch maqola va bir xotimag'a qo'yuldi", deydi.

Alisher Navoiydan bizgacha yigirmaga yaqin nasriy asar ma'naviy meros sifatida yetib kelgan. Shulardan biri "Mahbub ul-qulub" asaridir. "Mahbub ul-qulub" Alisher Navoiyning eng yirik nasriy asari bo'lib, u hijriy 906-yilda (milodiy 1500–1501-yillarda), ya'ni muallif umrining oxirgi yili qalamga olingan. Shu jihatdan qaraganda, bu asar buyuk mutafakkirning mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to'plagan g'oyat boy turmush tajribasi va xulosalarini o'z ichiga olgan.

O'rta asrlarda, VIII–XV asrlar davomida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ikki til — din va ilm-fan sohasida arab tilini qo'llash hamda badiiy ijodda fors-tojik tilida asarlar yaratish an'anaga aylanib qolgan edi. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy kabilar o'z asarlarini ona tilida emas, balki ana shu an'anaga ko'ra arab tilida yozdilar. Badiiy adabiyotda esa fors-tojik adabiy tili an'analarning ta'siri ancha kuchli edi. Uning ta'siri ostida hatto o'zbek xalqi orasidan yetishib chiqqan shoir va yozuvchilar ham ona tiliga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'ldilar. Ular turkiy-o'zbek tilini dag'al til, unda nozik his-tuyg'ularni nafis tarzda ifodalab bo'lmaydi, degan g'ayriilmiy, noto'g'ri fikrlarni ilgari surar edilar. Mana shunday sharoitda Alisher Navoiy ona tilini himoya qilish uchun kurash bayroqdori, ona tilining boyligi va sofligi uchun tolmas kurashchi sifatida maydonga chiqdi, ona tilining qimmatini kamsituvchilarga qarshi kurashdi. O'z ona tili — turkiy tilning boyligini, qudrat va salohiyatini, uning cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini katta kuch va g'ayrat bilan himoya qildi, uni she'riyat osmoniga ko'tardi. Shu bilan birga, u fors-tojik tili va adabiyotining taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shdi.

Navoiy o'zining ona tili uchun olib borgan kurashini uch yo'nalishda, ya'ni buyuk shoir va yozuvchi sifatida, yirik davlat arbobi hamda ulug' mutafakkir, tilshunos olim sifatida davom ettirdi.

Navoiy insonning komil bo'lishi uchun nimalar qilish lozimligi haqida "Mahbub ul-qulub" asarida mufassal bayon qilgan.

"Mahbub ul-qulub"da tilshunoslik sohalarida bo'lgan notiqlik odoblariga va muallif davrida kasb darajasiga ko'tarilgan kotiblik madaniyatiga e'tibor qaratadi.

Asarning birinchi qismi, o'n yettinchi "Kotiblar zikrida" faslida yozuvchi qanday bo'lishi kerakligini tavsiflaydi. "Kotiblar shuaro so'zining varaqnigoridur", deydi, ya'ni kotiblar shoirlarning asarlarini ko'chiruvchi kasb egalari bo'lib, ko'chirayotganda qanday yozilgan bo'lsa, shunday yozishi kerak, deydi.

Yozuvchi agar xato bilan yozadigan bo'lsa, so'zning ma'nosi o'zgarib ketishi mumkin yoki gapdagi ma'no salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini misollar yordamida tushuntiradi.

Eski o‘zbek alifbosi arab alifbosiga asoslangan bo‘lib, arab alifbosidagi ba’zi harflarning shakli bir xil bo‘lgan. Ularni faqat nuqtalari bilangina farqlab olish mumkin. Masalan, “ح” shaklida to‘rtta harf bor yoki “ب” shaklidagi harflar ham to‘rtta, “ر” shaklidagi harflar esa ikkita va hokazo.

“Ulki, bejo nuqta bila حبيب (habib)ni خبيث (xabis) qilg‘ay va محبت (muhabbat)ni محنت (mehnat)”. Ya’ni, agar kotib xato qilib “hoysi huttiy” harfining ustiga nuqta qo‘yib qo‘ysa, “xe” bo‘ladi va “be”ning nuqtasini ustiga adashib uch nuqta qo‘ysa, “se” harfi bo‘lib qoladi. “Habib” — “do‘st”ni “xabis” — “yomonlik”ka aylantirib qo‘yadi. Yoki “muhabbat” o‘rniga “mehnat” deb yozib qo‘yishi mumkin, deydi. Ana shunday xato yozuvchilarni qattiq tanqid qilib, xato qilmasdan yozishga chaqiradi va bir bayt keltiradi:

**Qaysi bir kotibki, ul so‘zga qalam surgay xilof,
Ul qaro yuzluk boshi bo‘lsun qalam yanglig‘ shikof.**

“Insonlar o‘rtasidagi muloqot til vositalari orqali yuz bersa-da, uning yuqori madaniyatli bo‘lishi nafaqat til birliklaridan adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holda, nutq madaniyati talablari darajasida suhbatlashishni, balki boshqa bir qancha omillarni ham hisobga olishni talab etadi”, deydi professor A. Abdusaidov va oltita omilni keltiradi. Yana maqolasida professor B. O‘rinboevning muloqot jarayonida yettita qoidaga rioya qilish kerakligi haqidagi fikrini iqtibos qiladi.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarining uchinchi qismining 48–60-“tanbeh”larida nutq madaniyati haqida g‘oyatda qimmatli fikrlar bildiriladi. 48-tanbehda: “Tilga ixtiyorsiz — elga e‘tiborsiz”. Nutq qilayotgan kishi eshituvchilar ko‘ngliga botmaydigan, chiroyli va qisqa so‘zlamog‘i lozim. 60-tanbehda esa: “Ko‘p deguvchi mumil; mukarrar deguvchi loya‘qil”, ya’ni ko‘p gapiruvchi maloldir, takror-takror gapiruvchi esa aqlsizdir. “So‘zki fasohat zevaridin muzayyan emasdur, anga chinliq zevari basdur”. So‘zlovchining so‘zi chiroyli so‘zlar bilan bezanmagan bo‘lsa-da, uning rost gapirishi yetarlidir. “Yolg‘onchi har necha so‘zida fasihiroq, so‘zi qabihroq”. Yolg‘onchi qancha chiroyli so‘zlagani bilan uning so‘zlarida yomonlik bor. “Chin so‘z nechakim betakalluf, qoyilg‘a iborat sodalig‘idin yo‘q taassuf”. Rost so‘z go‘zal qilib aytilmasa-da, uning soddaligiga ayb yo‘q.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida imlo qoidalari haqidagi fikrlari nafaqat shoir zamoniga tegishli, balki hozirgi zamonda ham dolzarbdur: lotin yoki kirill yozuvida e‘tiborsizlik bilan yozadigan bo‘lsak, bir so‘z boshqa bir ma‘noni anglatib yuborishi mumkin. Notiq rost so‘zlovchi bo‘lsa, nutqining ba’zi kamchiliklari kechiriladi. Navoiy ta‘biri bilan aytganda, “gulga yirtuq libos” kiygizilganda yanada go‘zallashganidek, “durg‘a badshakl sadaf” o‘rnatilganda esa uning qimmatini yanada oshadi, deya ta‘riflaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Navoiy A. Xamsat ul-mutahayyirin. — 1494.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — 1500–1501.
3. Vosifiy Z. Badoe ul-vaqoe.
4. Is‘hoqov Yo. Navoiyshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar.
5. Abdusaidov A. Nutq madaniyati va muloqot omillari haqida ilmiy ishlar.
6. O‘rinboev B. Muloqot jarayoni qoidalari bo‘yicha tadqiqotlar.
7. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Toshkent, 2000.
8. Beruniy A. R. Ilmiy asarlar to‘plami.
9. Ibn Sino. Ilmiy va falsafiy asarlar.
10. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk.